



O'ZBEKISTONDA BOZOR MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING ROLI VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI

Ilmiy rahbar: Rustamova Faridaxon Anvarjonovna

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti,

Sobirov Suxrob Sodiqjon o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

“Bank ishi” yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonida davlatning roli va bozorni tartibga solish mexanizmlarining ahamiyati haqida so'z boradi. Maqolada bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, normativ-huquqiy baza va iqtisodiy siyosat vositalarining bozor subyektlari faoliyatiga ta'siri yoritib beriladi. Maqolada davlatning bozor mexanizmlariga bevosita va bilvosita aralashuvi o'rtasidagi muvozanat masalalari ham ko'rib chiqilib, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy himoyani ta'minlashdagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: bozor munosabatlari, bozorni tartibga solish, iqtisodiy islohotlar, davlat siyosati, raqobat muhiti, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash.

Kirish. O'zbekistonda bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonida davlatning roli va bozorni tartibga solish mexanizmlarining ahamiyati alohida o'rin tutadi. Mustaqillik yillaridan boshlab mamlakatda markazlashgan reja iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni amalga oshirildi. Ushbu jarayonda davlat iqtisodiy islohotlarning tashabbuskori va muvofiqlashtiruvchi subyekt sifatida maydonga chiqdi. Ayniqsa, so'nggi yillarda



Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar bozor munosabatlarini chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning asosiy vazifasi - erkin bozor mexanizmlarining samarali ishlashi uchun qulay institutsional muhit yaratishdan iboratdir [1]. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilgi PF–4947-son Farmoni “Harakatlar strategiyasi” muhim ahamiyat kasb etdi [2]. Mazkur hujjatda iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash va raqobat muhitini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Natijada bozor munosabatlarining huquqiy asoslari mustahkamlanib, davlatning iqtisodiyotga ma’muriy aralashuvi bosqichma-bosqich qisqartirila boshlandi.

Davlat tomonidan bozorni tartibga solish mexanizmlari asosan normativ-huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy va institutsional vositalar orqali amalga oshiriladi. Xususan, narxlarni tartibga solish, soliq va bojxona siyosati, kreditlash mexanizmlari hamda subsidiya va imtiyozlar bozor barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qarorlari, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun soliq yukini kamaytirish, tekshiruvlarni qisqartirish va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish bozor munosabatlarining faollashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, davlat raqobat muhitini shakllantirish orqali bozorning sog‘lom rivojlanishini ta’minlaydi. Monopoliyaga qarshi siyosat bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Bu borada “Raqobat to‘g‘risida”gi qonun va Prezident qarorlari asosida monopol faoliyatni cheklash, davlat ishtirokidagi korxonalar ulushini qisqartirish hamda xususiy sektorni keng jalb etish choralari amalga oshirilmoqda. Natijada ko‘plab tarmoqlarda raqobat kuchayib, mahsulot va xizmatlar sifati oshmoqda.



Davlatning bozor munosabatlaridagi roli ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan ham chambarchas bog'liq [3]. Erkin bozor sharoitida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash davlat zimmasidagi muhim vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotga oid qaror va farmonlari orqali kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, bandlikni oshirish va real daromadlarni ko'paytirishga qaratilgan mexanizmlar joriy etildi. Bu esa bozor munosabatlarining ijtimoiy adolat tamoyillari asosida rivojlanishiga zamin yaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilda qabul qilingan PF-60-son Farmoni "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirish, davlatning iqtisodiy faoliyatdagi ulushini kamaytirish va xususiy sektor yetakchi kuchga aylanishi ustuvor maqsad sifatida belgilandi [4]. Ushbu hujjat davlatning bozor munosabatlaridagi rolini strategik boshqaruv, tartibga solish va nazorat bilan cheklash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sobiq markazlashgan reja iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish mamlakatning asosiy iqtisodiy strategiyasiga aylandi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni - bu iqtisodiy munosabatlarni liberallashtirish, xususiy mulk, raqobat va bozor mexanizmlari asosida resurslar taqsimotini ta'minlashni nazarda tutadi [5]. Ustuvor maqsadlardan biri - davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini kamaytirish bilan birga, raqobatbardosh va shaffof bozor muhitini yaratishdir. Bu yondashuv O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishidagi institutsional islohotlar, normativ-huquqiy bazaning takomillashtirilishi va iqtisodiy siyosat vositalari orqali amalga oshirildi.

Bozor iqtisodiyotining shakllanishida institutsional islohotlar muhim rol o'ynadi. Ular iqtisodiyotning barcha darajalarida yangi huquqiy va boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni o'z ichiga oladi. Mustaqillik yillarida davlat tomonidan mulkchilik shakllarini liberallashtirish, xususiy mulkni huquqiy himoya qilish va



bozor institutlarini yaratish yoʻlida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ayniqsa, 1991-1992 yillarda qabul qilingan “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish toʻgʻrisida”gi qonunlar mulkchilikni diversifikatsiya qilish va xususiy sektorni ragʻbatlantirishga xizmat qildi. Bu hujjatlar bozor subyektlariga oʻz mulkini erkin boshqarish va iqtisodiy faoliyat yuritish imkonini berdi.

Institutsional islohotlar natijasida tijorat banklari, birjalar, lizing kompaniyalari, mikromoliya institutlari kabi yangi bozor institutlari tashkil etildi, bu esa kredit, investitsiya va moliya bozorlarining shakllanishiga xizmat qildi. Yangi bozor institutlari bozor subyektlariga kapitalga kirish imkoniyatini kengaytirdi va iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilishga yordam berdi. Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimining mustahkamlanishi orqali aholi va yam bozor subyektlarining ijtimoiy barqarorligini taʼminlash choralari ham koʻrildi.

Normativ-huquqiy baza bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillarini rasmiylashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bozor munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilindi, xususan mulkchilik, tadbirkorlik, bank faoliyati va bojxona sohalarini tartibga soluvchi huquqiy asoslar yaratildi. Bu qonunlar iqtisodiy erkinlikni mustahkamlash va bozor subyektlari uchun hukuki kafolatlar yaratishda hal qiluvchi rol oʻynadi. Natijada xususiy sektorning rivojlanishi, tadbirkorlik subyektlarining bozor faoliyati va investitsiya muhitining yaxshilanishi kuzatildi.

Iqtisodiy siyosat vositalari bozor subyektlarining faoliyatiga toʻgʻridan-toʻgʻri taʼsir koʻrsatadi. Soliq, bojxona, kredit va subsidiya siyosati bozor sharoitlarini tartibga soluvchi asosiy mexanizmlardir. Oʻzbekiston hukumati soliq yengilliklari, imtiyozli kreditlar va yengillashtirilgan ruxsat berish tizimlarini joriy etish orqali kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlaydi hamda isteʼmol bozorining barqaror rivojlanishiga turtki beradi [6]. Bu chora-tadbirlar tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga, ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga va bozor dinamikasini yaxshilashga xizmat qiladi.



Narxlarni liberallashtirish bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim qismidir. Dastlab bir qator mahsulotlar bo'yicha narxlar davlat tomonidan tartibga solinsa-da, keyinchalik narxlar talab va taklif asosida shakllanadigan bozor mexanizmlari faoliyatiga o'tdi. Bu o'z navbatida bozor subyektlarini narxlarni tahlil qilish, raqobat strategiyalarini ishlab chiqish va resurslarni samarali boshqarish bo'yicha yangi imkoniyatlar bilan ta'minladi.

Davlatning bozor iqtisodiyotidagi roli bevosita iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Xuquqiy bazani mustahkamlash orqali davlat bozor qonuniyatlarini hurmat qilishni rag'batlantiradi va investitsion muhitni yaxshilaydi. Bu esa ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishni osonlashtirdi hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatladi. Shu bilan birga, ijtimoiy dasturlar orqali aholi daromadlari barqarorligini saqlash va bozor subyektlarining ijtimoiy mas'uliyatini oshirish choralari ko'rmoqda, bu esa bozor munosabatlarining ijtimoiy adolat tamoyillari bilan uyg'unlashuviga olib keladi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni mustaqillikdan so'ng davom etuvchi keng ko'lamli transformatsiyalarni talab qildi. Bozor mexanizmlari - talab va taklif qonuniyatlariga asoslangan iqtisodiy tizim bo'lib, u o'zini-o'zi tartibga soluvchi muhit yaratadi [7]. Biroq, bunday mexanizm nafaqat o'zini-o'zi boshqarishi, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun davlatning aralashuvi bilan ham qo'llab-quvvatlanadi. Shu jihatdan, O'zbekiston sharoitida davlatning bevosita va bilvosita aralashuvi o'rtasidagi muvozanat iqtisodiy siyosatning dolzarb masalasiga aylanmoqda.

Davlatning bevosita aralashuvi - bu hukumat organlari va davlat tuzilmalarining iqtisodiy jarayonlarga to'g'ridan-to'g'ri kirib kelishi, ya'ni davlat korxonalari, davlat buyurtmalari, litsenziyalash, narx nazorati yoki soliq imtiyozlari orqali bo'ladi. Masalan, oziq-ovqat bozorida narxlarni barqarorlashtirish uchun mamlakat yetakchilari tomonidan strategik rezervlardan foydalanish va narxlarni stabilizatsiya qilish mexanizmlari joriy etilmoqda. Shu yil dekabr oyida Prezident



Shavkat Mirziyoyev ma'lum qilganidek, yil davomida oziq-ovqat bozoriga bevosita aralashuv tizimi yo'lga qo'yiladi, u narx o'zgarishlarini yumshatish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu kabi chora bozor mexanizmlarining o'zini-o'zi boshqarishidan kelib chiqadigan tebranishlarni yumshatadi va ijtimoiy aholi qatlamlarini himoya qiladi. Biroq, davlatning to'g'ridan-to'g'ri aralashuvi iqtisodiyotda bozorlarga ta'sir ko'rsatishda muvozanatni talab qiladi. Haddan ziyod bevosita aralashuv raqobatni susaytirishi, bozor subyektlarining ijodiy faoliyatini cheklashi va investitsiya muhitini zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli Prezident va hukumat tomonidan bilvosita aralashuv vositalari ham keng qo'llaniladi. Bu vositalar soliq, pul-kredit, bojxona va raqobat siyosati kabi vositalar orqali bozor sharoitini shakllantiradi, subyektlarni qo'llab-quvvatlaydi, lekin ularni faoliyatni to'g'ridan-to'g'ri boshqarish emas. Masalan, soliq imtiyozlari va bojxona imtiyozlari kichik va o'rta biznes subyektlariga o'sish imkonini beradi, shuningdek, raqobatga asoslangan bozor infratuzilmasini yaratadi.

Davlatning bevosita aralashuvi va bilvosita aralashuvi o'rtasidagi muvozanat davlat siyosatining samaradorligini belgilaydi [8]. O'zbekiston Prezidentining so'nggi murojaatnomalarida ham iqtisodiyot boshqaruvida aralashuvni kamaytirish va bozor mexanizmlariga yo'l ochish vurg'ulanadi. Prezident Mirziyoyev o'z murojaatida davlat korxonalarining bozor mexanizmlari asosida faoliyat ko'rsatishi, monopol holatlarni bartaraf etish va raqobatni oshirishiligi kerakligini ta'kidlagan. Ayniqsa, neft-gaz, energetika va transport kabi sohalarda davlat ishtirokini kamaytirish masalasi iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida muhokama qilinmoqda.

Bevosita aralashuvning yana bir ko'rinishi - davlat tomonidan narxlarni tartibga solish va strategik omillarni nazorat qilishdir. Bozor mexanizmi talab va taklif asosida narxlarni shakllantiradi, lekin ayrim ijtimoiy jihatdan muhim mahsulotlar bo'yicha narxlarning barqarorligi uchun davlat mexanizmlari zarur bo'lishi mumkin. Misol uchun, oziq-ovqat narxlarining keskin o'sish xavfi bo'lsa,



mamlakat rahbariyati yil davomida maxsus aralashuv tizimini joriy etmoqda, bu esa narxlarning bozor mexanizmlari bilan birgalikda tartibga solinishini koʻzda tutadi. Ushbu yondashuv bozor subyektlariga tezkor javob berishga imkon beradi, lekin ular uchun bozor sharoitlari barqaror boʻlishini taʼminlaydi.

Bilvosita aralashuv vositalari, xususan, soliq va pul-kredit siyosati, inflyatsiyani nazorat qilishda muhim rol oʻynaydi. Masalan, pul-kredit siyosati orqali Markaziy bank inflyatsiyani tartibga soladi, bu esa bozor subyektlariga uzoq muddatli rejalashtirish imkoniyatini beradi. Soliq siyosati esa subyektlar faoliyatining samaradorligini oshirishni ragʻbatlantiradi, yangi ish oʻrinlari yaratadi va investitsion faollikni oshiradi. Bu kabi mexanizmlar bozor subyektlariga erkin faoliyat yuritish sharoitini yaratadi, shu bilan birga, iqtisodiyotga bevosita aralashuvni cheklaydi va bozorning oʻzini-oʻzi boshqarish mexanizmlarini mustahkamlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekistonda davlatning bozor mexanizmlariga bevosita va bilvosita aralashuvi oʻrtasidagi muvozanat iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat va raqobatbardoshlikni taʼminlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Bevosita aralashuv strategik va ijtimoiy jihatdan muhim sohalarda, masalan, oziq-ovqat narxlarini barqarorlashtirish yoki davlat korxonalarining faoliyatini muvofiqlashtirishda zarur boʻlsa, bilvosita aralashuv vositalari, jumladan soliq siyosati, pul-kredit mexanizmlari va investitsiya imtiyozlari, bozor subyektlariga erkin faoliyat yuritish imkoniyatini yaratadi. Ushbu ikki turdagi aralashuvning oqilona uygʻunligi bozorning oʻzini-oʻzi boshqarish mexanizmlarini rivojlantiradi, xususiyl sektor faoliyatini ragʻbatlantiradi va milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror oʻsishiga xizmat qiladi. Prezident qarorlari va hukumat farmonlari orqali belgilangan siyosat bu muvozanatni mustahkamlash va iqtisodiy oʻsishni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan samarali vosita boʻlib xizmat qilmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Qodirov, P.Z.Xashimov, N.G.Muminov, N.Y.Ortiqov, X.X.Rejapov «Iqtisodiyot nazariyasi». Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. I-qism. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, – Toshkent, «GRAND KONDOR PRINT» 2023. 476 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son
3. Bazarova, G. "SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN SOCIO ECONOMIC DEVELOPMENT ROLE AND IMPORTANCE." Экономика и социум 10 (125) (2024): 53-57.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
5. Mavludaxon T., Shavkatbek E. O ‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) //Tadqiqotlar. – 2025. – T. 61. – №. 6. – C. 100-105.
6. Shavkatbek E. GLOBAL TRENDS IN THE GREEN ECONOMY //Modern education and development. – 2025. – T. 19. – №. 4. – C. 26-30.
7. Shavkatbek E., Asilbek X. FORMATION AND USE OF LABOR RESOURCES //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 37. – №. 4. – С. 214-218.
8. Mamedov, H., Mo'minov, N., Umarov, A., Ismoilov, A. Iqtisodiyot nazariyasi 1- tom [Matn]: dars / H. Mamedov, N. Mo'minov, -Toshkent: Bookmany print, 2022. - 440 b.